

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
IJTIMOIY FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

tizimining falsafiy jihatlar.....	106
-----------------------------------	-----

SIYOSAT

F.F.Dadaboyev	
Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda davlat siyosatining roli	110
J.S.Sotvoldiyev	
Sharq va G'arb siyosiy tamaddunida tinchlik va xavfsizlik masalasi talqini	114
T.A.Azizov	
Xorijiy tajribalar asosida favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish imkoniyatlari.....	119
A.To'xtasinov	
Inson manfaatlarini e'tirof etuvchi konstitutsiya	122
F.R.Ravshanov, X.Z.Muminovich	
Tarixiy geosiyosatda Markaziy Osiyo	128

TARIX

O.V.Mahmudov	
"O'rta asr arabshunoslik tarjima markazlari": tushuncha va muomalaga kiritishning ilmiy asoslari	136
Ф.Т.Баитова	
Политическая нестабильность как фактор возникновения народного восстания в Кокандском ханстве (1873-1876 гг.).....	147
X.X.Mamajonov	
Turkiya Respublikasidagi Temurshunoslik taraqqiyotida xorijdan ko'chib kelgan ziyolilarning o'rni	153
I.R.Tishabayeva	
Sovet davrida O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalari qurilishi va infratuzilmasining shakllanishi (1970–1990-yillar).....	157
X.L.Xolmirzayev	
"Jome ul-havodis" asari qo'lyozmalari va ularning tavsifi	162
O.B.Nizomiddinov	
Sovet davrida (1920–1930-yillar) Farg'ona vodiysida muzey va teatrlar faoliyati: madaniy o'zgarishlar tahlili	167
Sh.B.Muhiddinova	
Buxoro amirligidagi ijtimoiy hayot masalalari ingliz Aleksandr Byorns talqinida	171
M.A.Umarov	
Afg'oniston va Eronning sovet davlati bilan iqtisodiy sohadagi munosabatlarining qisqacha mazmun va mohiyati	176
S.G'.Nigmatova	
O'zbekistonda nodavlat ta'lim muassasalarining shakllanishi xususiy o'quv markazlar faoliyati misolida	180
J.Axmedov	
Some considerations on the intangible cultural heritage of Karakalpakstan	184
X.P.Jurayev	
Xiva xonligi qishloq xo'jaligida donli ekinlar va ularga doir ayrim mulohazalar	189
H.S.Yusupov	
Xorazm Xalq Sovet Respublikasida "Madrasalar islohoti" dasturining qabul qilinishi va uning oqibatlarini	193
M.Q.Tolibboyev	
Xalq dostonlarida otlarning harbiy ishidagi o'rni (tarixiy-elshunoslik tahlili).....	197
X.X.Mamajonov	
Mustafo Kamol Otaturk kundaligida Amir Temur siymosi	201



UO'K: 930.85:327(560)

TURKIYA RESPUBLIKASIDAGI TEMURSHUNOSLIK TARAQQIYOTIDA XORIJDAN KO'CHIB KELGAN ZIYOLILARNING O'RNI**THE ROLE OF EMIGRATED INTELLECTUALS IN THE DEVELOPMENT OF TIMURID STUDIES IN THE REPUBLIC OF TURKEY****РОЛЬ ЭМИГРИРОВАВШИХ ИНТЕЛЛЕКТУАЛОВ В РАЗВИТИИ ТИМУРОВЕДЕНИЯ В ТУРЕЦКОЙ РЕСПУБЛИКЕ****Mamajonov Xumoyun Xomidjon o'g'li** 
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Turkiya Respublikasida temurshunoslik fanining shakllanishi va rivojlanishida xorijdan, ayniqsa Rossiya imperiyasi va Sovet Ittifoqi hududlaridan ko'chib kelgan ziyolilarning tutgan o'rni tahlil etiladi. Xususan, Ahmad Zaki Validiy, Akdes Nimet Kurat, Sadri Maqsudiy kabi mashhur tatar va boshqird ziyolilarning ilmiy faoliyati orqali Turkiyada Amir Temur va Temuriylar tarixining o'rganilishiga ta'siri yoritiladi. Maqolada bu ziyolilarning Temur shaxsiyati, davlat boshqaruvi va harbiy siyosatiga doir qarashlari, tarixiy manbalarni tadqiq etishdagi yondashuvlari, tarjimalari hamda ilmiy va metodologik merosi tahlil qilinadi.

Abstract

This article examines the role of intellectuals who emigrated from abroad, particularly from the territories of the Russian Empire and the Soviet Union, in the formation and development of Timurid studies in the Republic of Turkey. In particular, it highlights the impact of the scholarly activities of prominent Tatar and Bashkir intellectuals such as Ahmad Zaki Validi, Akdes Nimet Kurat, and Sadri Maksudi on the study of Amir Temur and the Timurid era in Turkey. The article analyzes these scholars' perspectives on Temur's personality, state governance, and military policy, as well as their approaches to studying historical sources, their translations, and their scientific and methodological legacy.

Аннотация

В данной статье анализируется роль интеллигентов, переселившихся из-за рубежа, особенно с территорий Российской империи и Советского Союза, в становлении и развитии тимуроведения в Турецкой Республике. В частности, раскрывается влияние научной деятельности таких известных татарских и башкирских деятелей, как Ахмад Заки Валиди, Акдес Нимет Курат и Садри Максуди, на изучение истории Амира Темура и тимуридской эпохи в Турции. В статье рассматриваются взгляды этих ученых на личность Темура, его государственное управление и военную политику, их подходы к изучению исторических источников, переводы, а также их научное и методологическое наследие.

Kalit so'zlar: Ahmad Zaki Validiy, Akdes Nimet Kurat, Sadri Maqsudiy, Temurshunoslik, Turkiya tarixshunosligi, Temuriylar davri, turkshunoslik, tarixiy metodologiya, ilmiy emigratsiya, tatar ziyolilari, Turkiston tarixi, ilmiy meros, turkiy xalqlar tarixi, tarixiy manbalar, Turkiya Respublikasi, akademik tarixshunoslik, turk tarixchiligi, tarixiy identitet, madaniy integratsiya.

Key words: Ahmad Zaki Validi, Akdes Nimet Kurat, Sadri Maksudi, Timurid studies, Turkish historiography, Timurid era, Turkology, historical methodology, scholarly emigration, Tatar intellectuals, history of Turkestan, scholarly legacy, history of Turkic peoples, historical sources, Republic of Turkey, academic historiography, Turkish historical scholarship, historical identity, cultural integration.

Ключевые слова: Ахмад Заки Валиди, Акдес Нимет Курат, Садри Максуди, тимуроведение, турецкая историография, эпоха Тимуридов, тюркология, историческая методология, научная эмиграция, татарские интеллигенты, история Туркестана, научное наследие, история тюркских народов, исторические источники, Турецкая Республика, академическая историография, турецкое историческое знание, историческая идентичность, культурная интеграция.

KIRISH

Turkiya Respublikasida tarixshunoslik, ayniqsa turkshunoslik va temurshunoslik sohalarining shakllanishi va rivojlanishida Rossiya imperiyasi hamda Sovet Ittifoqi hududlaridan ko'chib kelgan ziyolilarning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. XX asr boshlarida siyosiy ta'qiblar va mafkuraviy bosimlar tufayli Turkiyaga ko'chib kelgan tatar, boshqird va boshqa turkiy millatlarga mansub ziyolilar Turkiyada ilm-fan, ayniqsa tarixiy tadqiqotlar rivojiga sezilarli hissa qo'shdilar. Ular orasida

Ahmad Zaki Validiy, Akdes Nimet Kurat, Sadri Maqsudiy kabi ilmiy va madaniy meros egalari nomlari alohida tilga olinadi. Mazkur maqolada ushbu ziyolilarning Amir Temur va Temuriylar davri tarixini o'rganishdagi hissasi, ularning tarixiy metodologiyasi, manbalarga munosabati va Turkiyada temurshunoslik fani shakllanishiga ko'rsatgan ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, ularning tarixiy-adabiy faoliyati orqali turk tarixshunosligining yangi bosqichga ko'tarilishi, ilmiy tafakkurda turkiy dunyo tarixini yangicha yondashuv asosida anglash jarayoniga qo'shgan hissasi ochib bersihga harakat qilingan. Bu tatar ziyolilarning Turkiyaga ko'chib kelishi nafaqat ilm-fan taraqqiyotiga, balki turkiy xalqlar o'rtasidagi tarixiy-madaniy aloqalarning mustahkamlanishiga ham xizmat qilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqotning nazariy poydevorini yurtimiz va xorijdagi tarixshunos olimlar – B. Usmonov, A.Z.Validiy, S.Maqsudiy, A.N.Kurat, A.Inan hamda boshqa zamonaviy tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari tashkil etadi. Mazkur maqola yozilish jarayonida tarixiylik, tizimlilik, xolislik va determinizm kabi ilmiy-tadqiqot usullariga tayangan holda, ayniqsa qiyosiy-tarixiy, tahliliy, hamda retrospektiv singari umumfalsafiy metodlardan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ahmad Zaki Validiyning Turkiyada turkshunoslikning, xususan temuriylar davri tarixini yoritilishining rivojida o'z o'rni bor. U Boshqirdistonda yashab yurgan davrlaridayoq Turk tarixi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan hamda dars bergan. U o'zining tarixiy tadqiqotlarini 1912-yilda "Turk va tatar tarixi" asarini yozish bilan boshladi. U Turkiston mintaqasining ko'plab shaharlarida bo'lib, siyosiy faoliyat bilan birga ilmiy faoliyat bilan ham shug'ullanadi. Arab hamda fors tillarini yaxshi bilganligi tufayli Turkistondagi turkiy xalqlar tarixiga doir ko'plab manbalarni o'qishga muyassar bo'ladi.¹ 1923-yildan keyin bolsheviklar ta'qibidan qochib xorijga chiqib ketishga majbur bo'ladi. Fransiya va Germaniya davlatlarida tadqiqotlar olib boradi. Kembrij, Parij va Berlinning ko'plab universitetlaridan ishlash bo'yicha takliflar oladi. Ammo, bir qator turkshunos olimlarning da'vati hamda o'sha davrdagi Maorif vaziri Hamidlluoh Suphining taklifiga asosan tadqiqotlarini Turkiyada davom ettirishga qaror qiladi. Natijada, To'g'on Turkiyada turkshunoslikni akademik darajada o'rganilishi uchun muhim hissa qo'shadi.

To'g'on o'z ilmiy faoliyati davomida turkiy xalqlarning tarixiy merosini chuqur o'rganib, ayniqsa mashhur shaxslar va hukmdorlar faoliyatiga alohida e'tibor qaratgan. U boshqa mashhur turkiy hukmdorlarning tarixini o'rganish bilan bir qatorda, Amir Temur shaxsiga oid tarixiy izlanishlar ham olib borgan. Jumladan, 1932-yilda u "Temurbekning Islom diniga munosabati" ("Temür Bek'in İslâmiyete bakışı") nomli maqolasini e'lon qiladi. Ushbu maqolada To'g'on buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatida Temurning Islom diniga bo'lgan shaxsiy munosabati, diniy qarashlari hamda bu munosabatning uning siyosiy faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatganini tahlil qiladi. Ayniqsa, muallif Amir Temurning harbiy tuzumini shakllantirishda, qo'shin tashkil etish va uni boshqarishda turk-mo'g'ul harbiy an'analari qanday foydalanilgani masalasiga alohida urg'u beradi. To'g'on o'z maqolasida Amir Temurning siyosiy va harbiy qarorlarida nafaqat diniy, balki etnik-madaniy omillarning ham qanday o'rin tutganini ochib berishga intilgan.²

Turkshunoslik ilmiy tadqiqotlarining shakllanishi va rivojlanishida alohida o'rin tutgan, shuningdek, Turkiyada tarix faniga oid izlanishlar metodologiyasini muayyan darajada yo'naltirib bergan muhim asarlardan biri A.Z.V.To'g'on tomonidan yozilgan "Tarihte usul" (Tarix faniga yondashuv usullari) nomli asardir. Ushbu kitobda muallif tarixiy tadqiqotlarni olib borishda ilmiy asos va metodik yondashuv zarurligini ta'kidlab, tarixiy voqealarning zamonaviy ilmiy talablarga javob beradigan uslubda tahlil qilinishi lozimligini uqtiradi. Ayniqsa, u Amir Temurning siyosiy maydonga chiqishi va hokimiyat tepasiga kelishini tasodifiy yoki faqat shaxsiy fazilatlar bilan izohlash emas, balki bu jarayonni o'sha davrda Markaziy Osiyo va unga tutash hududlarda mavjud bo'lgan murakkab ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy holatlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilish kerakligini alohida urg'u bilan qayd etadi. To'g'onning fikricha, tarixiy shaxslarning faoliyati va tarixiy jarayonlar chuqur ijtimoiy asoslar va muhit bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni o'rganishda har tomonlama ilmiy yondashuv zarurdir. Shuningdek, u mazkur asarida Temuriylar sulolasiga oid tarixiy manbalarni o'rganish uchun muhim bo'lgan asarlar ro'yxati, ularning qisqacha bibliografik ma'lumotlari hamda

¹ Nuri Yüce, Ahmed Zeki Velidî Togan'in yeteneği ve bilgi birikiminden bazı ayrıntılar, Tarih Dergisi, Sayı 53 (2011 / 1), İstanbul 2012, s. 253-267.

² Togan, Z. V. (1932). Temür Bek'in İslâmiyet'e Bakışı. Atsız Mecmua, 0(13), S. 7-11.

TARIX

ilmiy tavsiflarini ham keltiradi. Bu jihat asarning nafaqat metodologik qo'llanma sifatidagi ahamiyatini, balki tarixiy manbashunoslik nuqtai nazaridan ham beqiyos qiymatga ega ekanligini ko'rsatadi.³

Shuningdek, To'g'on "Umumiy turk tarixiga kirish (Umumi türk tarihine giriş)" nomli asarida turkiy xalqlarning qadimgi davridan to Usmoniylar imperiyasi tugaguniga qadar umumiy tarixiga qisqacha to'xtalib o'tadi. Muallifning bu asarida Amir Temurning kelib chiqishi hamda uning davlat boshqaruvi, harbiy yurishlariga doir fikrlari ham o'rin olgan.⁴

Turkiyada Amir Temur tarixi o'rganilishining rivojiga o'z hissasini qo'shgan ziyolilardan yana biri Akdes Nimet Kuratdir. Tataristonda tug'ilgan Kurat 1922-yilda Turkiyaga ko'chib o'tdi va akademik faoliyatini davom ettirdi. Uning ilmiy izlanishlari turkiy xalqlar va qo'shni sivilizatsiyalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga alohida e'tibor qaratgan holda turkiy tarixning turli jabhalarini qamrab olgan.

Akdes Nimet Kurat Turkiyada Amir Temur hamda Temuriylar tarixiga doir tadqiqotlar olib bormagan bo'lsa-da, ma'lum darajada temurshunoslik rivojiga o'z hissasini qo'shdi deyish mumkin. Xususan, Bartoldning "Ulug'bek va zamon" asari 1930-yilda aynan Akdes Nimet Kurat tarafidan turk tiliga tarjima qilinadi. Bu tarjima asar tarix ixlosmandi bo'lgan Mustafu Kamol Otaturkning ham shaxsiy kutubxonasidan joy oladi.⁵ Kurat Turkiyada temurshunos olimlarni yetishtirishga bevosita rahbarlik qildi. Turkiyadagi temurshunoslik maktabining asoschilaridan biri bo'lgan Ismoil Aka aynan Kuratning maslahatlari asosida Temuriylar davri tarixi bo'yicha o'z tadqiqotlarini boshlagan.

Bu davrda Turkiyaga ko'chib o'rnatilgan tatar ziyolilaridan yana biri Sadri Maqsudidir. Sadri Maqsudi Turkiyada turkiy xalqlar tarixini yoritilishi hamda bu sohaning rivojlanishiga bevosita o'zining hissasini qo'shdi. Biz yuqorida nomini zikr qilgan kitobimiz "Turk tarixining asosiy yo'nalishlari" nomli loyiha asarning hamda ushbu asar asosida yaratilgan, maktab va litseylarda o'qitilishi ko'zda tutilgan tarix fani darsligini yaratilishida muallif sifatida ishtirok etadi. Sadri Maqsudiy o'zining "Turk tarixi va huquq (Türk tarihi ve hukuk)" nomli asarida o'tmishda mavjud bo'lgan barcha turkiy davlatlardagi huquqiy munosabatlar hamda davlat boshqaruvi tarixiga to'xtalib o'tadi. Muallif ushbu asarida turklardagi huquqiy munosabatlar tarixiga to'xtalar ekan, Amir Temurning "Temur tuzuklari" asari ham asosiy manbalardan biri ekanligini ta'kidlab o'tadi.⁶ Shuningdek, uning asarida turkiy davlatlardagi aholining ijtimoiy qatlamlari doir ma'lumotlarni ham uchratish mumkin. U Amir Temur davlatida aholi huquqiy jihatdan emas, balki kasbi-kori hamda ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra tabaqalarga bo'linganligini aytib o'tadi. Turkiy xalqlarda qadimdan yagona tabaqaga mansublik degan tushuncha mavjud emasligini, kasbi-kori, ijtimoiy ahvoli hamda turmush sharoiti yaxshilanib borishi bilan birga uning jamiyatdagi statusi ham yuksalib borishini qayd etadi.⁷

Ahmad Zaki Validiy, Akdes Nimet Kurat, Abdulqodir Inan, Sadri Maqsudiy kabi ko'zga ko'ringan ziyolilarning Turkiyaga kelishi mamlakatda tarixshunoslik, turkshunoslik hamda temurshunoslikning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Tarix, tilshunoslik va madaniyatshunoslik bo'yicha keng ma'lumotga ega bo'lgan bu ziyolilar Turkiyaning akademik va madaniy jihatdan boyishiga hissa qo'shgan.

Bu olimlar o'zlari bilan birga turk tarixi va madaniyatni chuqur anglashga yordam beradigan tarixiy-ilmiy adabiyotlarni olib kirish orqali turk tarixshunosligining ko'lamini kengaytirishga harakat qildi. Ular turkiy xalqlar o'rtasidagi umumiy merosni yoritishga harakat qilgani holda, temuriylar tarixini kengroq turkiy doirada rivojlanishiga yordam berdilar. Ularning yondashuvlari ilmiy va ko'pincha o'sha davr uchun innovatsion bo'lgan metodologiyalar hamda tanqidiy yondashuvlarni o'z ichiga olgan. Bu turk olimlarini tarixiy tadqiqotlarda yanada qat'iy akademik standartlar va usullarni qo'llashga undadi. Bu esa Onado'li chegarasidan tashqariga chiqib, O'rta Osiyo va boshqa mintaqalardagi turkiy xalqlarning tarixiy-madaniy merosini o'zida mujassamlashtirgan turk o'ziga xosligini yanada keng qamrovli shaklda o'rganishga zamin hozirladi.

Bu ziyolilar Turkiya ta'lim muassasalarida faoliyat olib borib, ilmiy jurnallar va jamiyatlarni yaratishda qatnashdi. Ularning Turkiyaga kelib o'rnatilishi turkshunoslikning rasmiy akademik fan sifatida institutsionallashtirishiga yordam berdi. Ular O'rta Osiyo tarixi, turkologiyasi va etnografiyasiga

³ Togan, Z. V. Tarihte usul... S. 197.

⁴ Togan, Z. V. Umumi türk tarihine giriş, Endurun Kitabevi, İstanbul 1981, S. 63-64. (Keyingi o'rinlarda – Togan, Z. V. Umumi türk tarihine giriş...)

⁵ Atatürk'ün Özel Kütüphanesi'nin Kataloğu (Anıtkabir ve Çankaya Bölümleri), Ankara, Katalog No. 3826. 1973, S.593.

⁶ S.M.Arsal, Türk tarihi ve hukuk, Türk tarih kurumu, 2014, S. 63.

⁷ S.M.Arsal, Türk tarihi ve hukuk, Türk tarih kurumu, 2014, S. 113.

yo'naltirilgan universitet bo'limlari hamda tadqiqot institutlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynagan. Ularning faoliyati Turkiyaning kengroq turkiy dunyo bilan aloqasini ta'kidlagan tarixshunoslikni shakllantirish va mustahkamlashga yordam berdi. Bu ayniqsa, tarixiy va madaniy g'oyaga asoslangan kuchli milliy o'zlikni o'rnatishga intilgan ilk respublika davrida muhim ahamiyatga ega edi.

Ular o'zlarining ta'lim va ilmiy asarlari orqali turk tarixchilari hamda olimlarining yangi avlodini tarbiyaladi, deyish mumkin. Bu tatar ziyolilarining kelishi Turkiyaga tarixshunoslik va turkshunoslik rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan bilim, metodologiya va madaniy istiqbollar oqimini taqdim etdi. Ular o'zlari bilan turkiy xalqlar va madaniyatlarni qamrab oladigan turk tarixining akademik chegaralarini kengaytirgan ilmiy merosni olib kelishdi. Ularning ta'siri keyingi tadqiqotlar uchun zamin yaratdi va Turkiyaning turkiy dunyo bilan tarixiy hamda madaniy aloqalarini kengroq tushunishga yordam berdi. Bu esa zamonaviy turk tarixshunosligi va temurshunoslikning akademik soha sifatida shakllantirishda muhim ahamiyatga ega edi.

XULOSA

Ahmad Zaki Validiy, Akdes Nimet Kurat, Sadri Maqsudiy kabi olimlar Turkiyada Amir Temur va Temuriylar davri tarixini o'rganishda katta ilmiy va metodologik meros qoldirdi. Ularning ilmiy faoliyati nafaqat tarixiy manbalarni chuqur tadqiq qilish, balki turk tarixshunosligini yangi bosqichga ko'tarish, tarixiy tafakkurda turkiy dunyo tarixiga yangicha yondashuvlarni joriy etishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, bu ziyolilar Turkiyada temurshunoslik fanining akademik institutlashuvi va kengroq turkiy tarixiy-madaniy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qildi. Ularning ilmiy merosi bugungi kunda ham Turkiya va boshqa turkiy mamlakatlardagi tarixiy tadqiqotlar uchun poydevor bo'lib qolmoqda. Shu bois, xorijiy ziyolilarning Turkiyaga ko'chib kelishi nafaqat ilm-fan taraqqiyotiga, balki turkiy xalqlar o'rtasidagi madaniy va tarixiy integratsiyaga ham katta hissa qo'shganini ta'kidlash muhimdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nuri Yüce, Ahmed Zeki Velidî Togan'in yeteneği ve bilgi birikiminden bazı ayrıntılar, Tarih Dergisi, Sayı 53 (2011 / 1), İstanbul 2012, s. 253-267.
2. Togan, Z. V. (1932). Temür Bek'in İslâmiyet'e Bakışı. Atsız Mecmua, 0(13), S. 7-11.
3. Togan, Z. V. Tarihte usul, Endurun Kitabevi, İstanbul 1981.
4. Togan, Z. V. Umumi türk tarihine giriş, Endurun Kitabevi, İstanbul 1981, S. 63-64.
5. Atatürk'ün Özel Kütüphanesi'nin Kataloğu (Anıtkabir ve Çankaya Bölümleri), Ankara, Katalog No. 3826. 1973, S.593.
6. S.M.Arsal, Türk tarihi ve hukuk, Türk tarih kurumu, 2014, S. 63.